



**YASHAR KAMOLNING ASARLARI TARJIMASIDA
VOQELIK IDROKI**

Dilfuza Shodmonova

*TDSHU, 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
tarjimashunoslik ixtisosligi 1-kurs tayanch doktoranti, Toshkent. O‘zbekiston. Tel
+99890900929204, E-mail: d.shodmonova@icould.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjimaning asosiy estralingvistik aspektlaridan biri bu asliyatni madaniy adaptatsiya qilish shuning uchun ham tarjimon ham til jihatidan ham madaniy jihatidan juda katta mahoratga ega bo‘lishi talab etilishi hamda, asliyatni idrok qilish va tarjima faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirish tarjimonning eng ustuvor vazifalari haqida.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, estralingvistik aspekt, adaptatsiya, kognitiv, voqelik idroki.*

Kognitiv yo‘nalishda qalam tebratytgan tadqiqotchilar ushbu sohaning asosiy tushunchalari sifatida “kognitsiya” va “bilim”ni e’tirof etadilar. Ulardan birinchisi tamoman ma’no bilan bog‘lanmasdan, haqiqiy bilimdan tashqari, yanglish hulosalar bilan ham ish ko‘radi hamda bilim va mulohazalarga murojaat qiladi. Ammo ushbu mulohazalarning ba’zilari xato yoki haqiqatga mos kelmasligi mumkin. Tarjima jarayonida tarjimon katta rol o‘ynaydi, uning tilni nechog‘li bilishidan tortib, iste’dodi, bilimi, saviyasi, dunyoqarashi, asl nusxaga munosabati, uslubi, ruhiyati... kabi barcha omillar u yoki bu darajada tarjimada o‘z aksini topadi. Lekin o‘zbek tarjimashunosligida bu omillarga deyarli e’tibor qaratilmay, asosiy urg‘u tarjimada mazmunning qanday aks etishiga berilgan. Albatta, vazn, qofiya, radif va badiiy tasvir vositalarining saqlanishi muammolari ham bir qadar o‘rganilgan. Holbuki, “biz tarjimonni ko‘p tomonlama o‘rganishimiz mumkin. Masalan, fiziologik, biologik, falsafiy, genetik-tarixiy, milliy yoki irqiy tomondan va hokazo”⁴⁶. Chunki tarjimonning ruhiyati, kayfiyati, adabiyotga, asarga, muallifga, u mansub millatga munosabati, qaysi millatga mansubligi, qaysi dinga e’tiqod qilishi, bilim darajasi, tafakkur miqyosi, dunyoqarashi, qanday an’ana va qadriyatlar ruhida tarbiyalangani kabi ko‘pdan-ko‘p masalalarning barchasi u yoki bu darajada tarjimaga o‘z muhrini bosadi⁴⁷.

Har qanday tarjimada tarjimonning oldiga ikkkita asosiy masala qo‘yiladi. Birinchisi, asliyatda muallif tomonidan ifodalangan fikr tarjimada ham aniq o‘z ifodasini topishi kerak. Buning uchun tarjimon, avvalo, asliyatni to‘la idrok qilishi talab etiladi.

⁴⁶ Alimov X. Tarjimon ruhiyati \ Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami). 6-kitob. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985, 258-bet.

⁴⁷ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ikkinchi masala esa, tarjima asar qaysi tilga o'girilgan bo'lsa o'sha til me'yorlariga qat'iy amal qilishi kerak.

Tarjima jarayonida ikki holat yuz beradi: tarjima qilinayotgan narsani dastavval tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu ona tilida sodir bo'ladi – bunda tarjima unsurlari yuz beradi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Bular: so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar⁴⁸.

Tarjimon faqatgina ko'p tillarni bilibgina qolmay, balki asliyat egasining millatiga xos bo'lgan madaniyat, milliy qadriyatlari, dini, o'sha xalq uchun muqaddas bo'lgan narsalar, umuman, shu xalq haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lishi shart. Bir so'z matn ichida boshqa, yakka holatda yana boshqa bir ma'no kasb etishi, hammamizga ayon.

Tarjimon til bilishi, xalq stereotipini aniq gavdalandira olishi va yana eng muhimi bilim zaxirasiga ham ega bo'lishi talab etiladi. Tarjimonlik faoliyati intellektual faoliyat sanaladi. Shuning uchun tarjimonning bilimi, kognitiv ongi oqilona yondashishga xizmat qilishi zarur.

Tarjima faoliyati aql bilan bosqichma-bosqich bajariladigan harakatlardan iborat. Uning bilan shug'ullanayotgan shaxs dastavval qo'yilayotgan vazifani to'liq belgilashi va harakat yo'nalishini aniqlab olishi kerak bo'lsa, keyingi o'rinlarda reja tuzishi, tarjima mallarni izlashi, tanlashi va ulardan foydalanishi, nihoyat, erishilgan natijani belgilangan maqsad, vazifaga qay darajada mos kelishini sinab ko'rmog'i darkor⁴⁹. Bizga ma'lumki, tarjima jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi. Adekvat tarjima yaratish uchun tarjima boschiqlari ketma-ketligiga muvofiq ish ko'rish, tarjima faoliyati talablariga to'la amal qilish va asliyat uslubini saqlab qolish muhim omillardan sanaladi.

Tarjimon voqelikni idrok qilmasdan turib, muallif aslida nimani yetkazib bermoqchiligini hali o'zi anglamasdan turib, tarjimini muvaffaqiyatli yakunlay olmaydi. Ushbu so'zlarimizning isboti sifatida ba'zi misollarni keltirib o'tamiz. Yashar Kamolning "Sevgi afsonasi" romani ko'p tillarga o'girilgani sari, o'zbek tiliga ham tarjima qilindi⁵⁰. Ushbu roman turk folklorining yorqin namunasi bo'lgani bois, tarjima jarayoni ham mashqqat talab etadi. Asliyat realiyalar, milliy xos so'zlar, frazeologizmlarga boy, tabiat tasviri va qahramonlar portreti asarning hajman asosiy qismini tashkil etadi. Tarjimon o'bek kitobxoniga ham huddi shu tasavvurni uyg'ota olishi kerak. Asarning boshlanishi va uning tarjimasiga e'tibor qaratamiz:

"Ağrıdağının yamacında, dört bin iki yüz metrede bir göl vardır, adına Küp gölü derler. Göl bir harman yeri büyüklüğündedir. Çok derinlerdedir. Göl değil bir kuyu. Gölün dört bir yanı, yani kuyunun ağzı, firdolayı kırmızı, keskin, bıçak ağzı gibi ışıltılı kayalarla çevrilidir. Kayalardan göle kadar daralarak inen yumuşak bakır rengi bir toprak belli bir aşıntıyla yol yoldur. Bakır rengi toprağın üstüne yer yer taze bir yeşil çimen serpilir. Sonra gölün mavisini başlar. Bu, ban" başka bir mavidir. Hiç bir suda, hiç bir mavide böyle bir mavi yoktur. Laciverdi, yumuşak, kadife bir mavidir. Her yıl karlar

⁴⁸ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1978, 96-бет.

⁴⁹ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1978, 46-бет

⁵⁰ Tarjimon Hamidov X. 2021-yil tarjima qilingan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

eriyip de bahar gözünü açınca. Ağrı-dağında bir ulu tazelik patlayınca, gölün kıyıları ince kar çizgisinin üstü, keskin, kısa, küt çiçeklerle dolar. Çiçeklerin rengi alabildiğine parlaktır. En küçük çiçek bile mavi, kırmızı, sarı, mor kendi rengine ok uzaklardan bir renk pırıltısı olarak balkır. Ve Keskin kokarlar. Gölün mavi suyu, bakır rengi toprağı baş döndürücü keskin kokularla kokar. Ve bu kokular çok uzaklardan duyulur⁵¹.

Yozuvchi romanni tabiat tasviri bilan boshlagan va bu o'quvchi ko'z o'ngida voqea sodir bo'layotgan joyni aniq tasavvur qila olishda yordam beradi. Tarjimon esa, uni quyidagicha tarjima qilgan:

“O'g'ritog'ning to'rt ming ikki yuz metr quyisida bir ko'l bor. Uni “Kup ko'li” (küp “hum” degani) deyishadi. Ko'l uncha katta emas, bor-yo'g'i bir xirmon joyidek keladi. Ammo juda chuqur – ko'l emas, quduq, deysiz. Ko'lning to'rt tomoni, ya'ni quduqning og'zi to'rt tomondan qizil, uchlari pichoqning damidek silliq qoyalar bilan o'ralgan. Qoyalardan ko'l tomon torayib, enib kelgan misrang turpoq sirpanchiqni eslatadi. Tuproq ustida har yer-har yerda yashil maysa o'sib yotadi. Maysa tugagan joyda moviy ko'l boshlanadi. Ko'lning moviy rangi bo'lakcha. Bunday moviylikni boshqa yerda ko'rmaysiz. Suv emas, go'ya moviydan ko'ra quyuproq lojuvard, yumshoq duhoba, deysiz.”⁵²

Tarjimada tarjimon asliyat muallifi bilan hamnafas bo'lishi, asardagi har bir detalni muallif ko'zi bilan ko'rishi kerak. Tarjimon ham til biluvchi mutaxassis, ham adib bo'lib badiiy vositalardan keng foydalanmog'i, obrazlilikka alohida e'tibor bermog'i lozim. Yuqoridagi parchada tarjimonning badiiy yondashishi tufayli tabiat tasvirini xuddi asliyat asardek o'qilishini ko'ramiz. Tarjimon parchadagi atoqli otni ham o'z nomi bergan. Uni izohlab, bu so'z o'zbek tilida qanday ma'no anglatishini alohida ko'rsatib o'tgan. Bu o'zbek kitobxonida vaziyatni yanada aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi, aniqlik tamoyili sifatida xizmat qiladi.

Tarjimon asliyatdagi voqelikni to'laligicha idrok qilgan. Bu asarda turk xalqiga xos bo'lgan bir so'zlilik, qat'iyatlilik, urf-odatlariga sodiq qolish kabi hislatlar namoyon etilgan. Tarjimon ham buni yaqqol ko'rsatib bera olgan.

Badiiy asarning milliyligini belgilaydigan asosiy vositalardan biri bo'lgan realiyalarning tarjimada to'g'ri berilishi original asarning milliy to'qimasini o'zga tilda beshikast qayta yaratish muammosini ma'lum ma'noda hal etilishini ta'minlaydi. Bu yerda, dastavval, realiya va termin tushunchasi orasidagi farqni ko'rsatish kerak bo'ladi. Terminlar boshqa leksik birliklardan farqli o'laroq muayyan bir tushuncha, predmet, hodisalar nomini ifodalab, bir ma'noli, sinonimsiz ko'pincha o'zlashtirma so'zlardan tashkil topgan bo'ladi⁵³.

Yana bir parchani tahlilga tortamiz:

⁵¹ Yaşar Kemal. Ağrıdaki Efsanesi, 1.sayfa.

⁵² Яшар Камол. Севги афсонаси: роман. Таржимон: Х.Ҳамидов. 7-бет.

⁵³ Ҳамидов Х. Ўткир Ҳошимов асарлари турк тилида. - Тошкент: “Nodirabegim”, 2020, 55-бет.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

“Çok turuncu. Güneşin ardından da uzun bir hayat ağacı yemyeşil yükseliyordu., Atın sol yanında da böyle bir güneş, böyle bir ağaç vardı. Sofi bu güneşi, bu ağacı bir yerlerde görmüştü. Bunu şöyle hayal meyal anıyordu. Bu suretler bir ünlü aşiretin, oymağın damgası olmalıydı. Sofi bir süre azıcık ürkmüş, azıcık şaşırmış, azıcık korkmuş atın ötesinde sessiz durdu. Ahmedin evine gelen bu ünlü, bu büyük konuk kimdi ola?”

“Kigiz yopinch ustidagi olovrang quyosh rasmining yonida baland, yam-yashil hayot daraxtining rasmi ham ko‘zga tashlanadi, otning chap tomonidan o‘tib qaraganda ham xuddi shunday quyosh va yam-yashil daraxt rasmini ko‘rish mumkin.

So‘fiy bobo bu rasmni ilgari ham qayerdadir ko‘rganday edi. Ammo qayerda?.. U rasmga qarab nimanidir xotirladi. Rasm unga obro‘li bir ashiratning (ashirat – qabila, urug‘) tamg‘asini eslatganday bo‘ldi”.

Ushbu parchadagi “ashirat” so‘zi o‘zbek tiliga aynan tarjima qilingan. Asliyatdagi realiyalar qaysi xalqqa xos ekanligini bildirish uchun tarjimachilik ishida bunday holat ko‘p uchrab turadi. Milliylikka yo‘g‘irilgan asarning to‘laqonli qayta yaratilishi tarjimonning mahoratidan dalolat beradi. Tarjimon uning tilimizdagi “qabila, urug‘” so‘ziga teng kelishni pastda izohlab o‘tgan. Bu bilan tarjimon muallif uslubini ham, ma‘noni ham saqlab qolishga erishgan.

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirmoqchimiz: “Mukammal tarjima yaratish uchun asliyatning badiiy kontseptsiyasi, obrazlar tizimini asliga muvofiq aks ettirish katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa tarjima qilinayotgan asarni, undagi har bir belgining g‘oyaviy-estetik vazifasini to‘g‘ri idrok etish talab qilinadi”⁵⁴.

Tarjimaning asosiy estralingvistik aspektlaridan biri bu asliyatni madaniy adaptatsiya qilish shuning uchun ham tarjimon ham til jihatidan ham madaniy jihatidan juda katta mahoratga ega bo‘lishi talab etiladi. Asliyatni idrok qilish va tarjima faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirish tarjimonning eng ustuvor vazifalaridan bo‘lmog‘i darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Яшар Камол. Севги афсонаси: роман. Таржимон: Х.Хамидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021 йил
2. Yaşar Kemal. Ağrıdaki Efsanesi romanı
3. Alimov X. Tarjimon ruhiyati \ Tarjima san’ati (Maqolalar to’plami). 6-kitob. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985, 258-bet.
4. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014
5. Саломов F. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978.

⁵⁴ Илёсов Б. Воссоздание художественной концепции произведения в переводе. – Ташкент: “Фан”, 2010. – С. 11.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

6. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Тошкент: “Фан”, 1980.
7. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: “Фан”, 1966.
8. Ҳамидов Х. Ўткир Ҳошимов асарлари турк тилида. - Тошкент: “Nodirabegim”, 2020.

